

O'ZBEK MADANIYATIDA TA'ZIYA MAROSIMLARINING HUDUDIY JIHATDAN FARQLANISHI VA O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI



<https://doi.org/10.24412/2181-1784-2022-20-733-739>

Narmurodova Gulnoza Ilhom qizi

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

“Umumiy tilshunoslik” kafedrası katta o'qituvchisi

e-mail: G.Ilhomovna@gmail.com

Tel: 91 188-77-37.

ANNOTATSIYA

Ma'lumki ta'ziya marosimlari turli hududlarda, ayniqsa musulmon mamlakatlarida turlicha bo'lib, ular tegishli urf-odatlar bilan bog'langandir. Maqola asosida o'zbek millatining ta'ziya marosimlarini o'tkazish tartibi, har bir hududda yaqinini yo'qotgan insonga o'ziga xos tarzda ta'ziya bildirish jarayoni haqida ma'lumotlar berilgan. Shuningdek, ta'ziya marosimida ishlatiladigan so'zlarning kelib chiqishi tarixi asosida etnolingvistikaga ham urg'u berilgan.

Kalit so'zlar: *Ta'ziya, marosim, yig'i marosimi, madaniyatlararo, ekstralingvistika, urf-odat.*

TERRITORIAL DIFFERENCES AND PECULIARITIES OF CONDOLENCE CEREMONIES IN UZBEK CULTURE

ABSTRACT

It is well known that condolence ceremonies vary from region to region, especially in Muslim countries, and are associated with appropriate customs. The article provides information on the procedure for conducting condolences of the Uzbek nation, the process of expressing condolences to the bereaved in each region. Emphasis is also placed on ethnolinguistics based on the history of the words used in the condolence.

Keywords: *condolence, ritual, mourning, intercultural, extralinguistic, ritual.*

Ko'p ming yillik tarixga ega bo'lgan o'zbek xalqi asrlar davomida o'ziga xos xilma-xil urf-odatlar, marosimlarni yaratdi. Ular doimiy takrorlanishi va xalqning ularga amal qilib kelishi natijasida umrboqiydir. Turmushga, zamonga qarab ularning

ayrimlari unutiladi. Zamonga qarab, yangilari paydo bo'ladi, eng xalqchillari esa avloddan-avlodga o'tib keladi.

Barchamizga ayonki, ta'ziya marosimlari bu inson olamdan o'tganidan keyin, ularni hurmat va ehtirom ila dafn etish jarayonidir. Ushbu marosim ingliz va o'zbek madaniyatida ham o'z ahamiyatiga ega hisoblanadi. Millatlar va madaniyatlararo ta'ziya marosimlarini o'rganish jarayonida ularni hududiy jihatdan ham turlicha o'tkazilishiga bevosita guvoh bo'lamiz. Milliy madaniyatimizga xos bo'lgan urf odat va an'analarimizda ta'ziya marosimlari 7kunlik aza, 20kunlik, 40kunlik, 52 kunlik, Payshanbasi, Jumasi kabi vaqt kesimini o'z ichiga oladi. [Madayev O. 2010. 152]

Dastavval O'zbekiston Respublikasi Navoiy viloyatida ta'ziya marosimi qanday tartibda o'tkazilishi haqida ma'lumot bermoqchiman. Navoiyliklar ta'ziya marosimida yaqin insoni ya'ni padari, validasi yoki jigarbandlari olamdan o'tganida 40 kun davomida 7 kishi ko'k rangdagi uzun libos kiyadi, ayollar boshlariga kichik ro'mol o'ragan holatda paranji yopinib yurishadi. 40 kunlik aza davomida ular fasillarimizning qaysi biri bo'lishidan qat'iyy nazar oyoqlariga mahsi va kalish kiyib yurishadi. Shuningdek bu hududning yana bir ajoyib an'anasi dafn marosimida validasi, padari buzrikvori va farzandlaridan judo bo'lganida alohida qayg'uli ohangda, yig'i bilan she'r yoki qo'shiq aytishadi. [Madayev O. 2010. 152]

Onasidan ayrilganda farzand nolasi:

Huvillaydi xonalarim

Chirqillaydi bolalarim

Cheksiz ohu-nolalarim

Endi sizni qaydan topay

Onajon ayting sizni qaydan topay

Mehribonim.

Dardingizni topolmadim

Vaqtida ko'p borolmadim

Qol dedingiz qololmadim

Onajonim ayting sizni qaydan topay

Olloh sizni rahmat qilsin

Makoningiz Jannat bo'sin

Unutmasin sizni farzand

Mehribonim sizni qaydan topay

Borar edim o'tdek yonib
Ko'rar edim mehrim qonib
Endi yig'lay yonib-yonib
Onajon ayting sizni qaydan topay

So'zlaringiz qulog'imda
Hidlaringiz dimog'imda
O'Imagansiz hayolimda
Mehribonim sizni qaydan topay.

Otasi ya'ni padari buzrikvori vafot etganda uning farzandlari janoza vaqtida otasini eslab yig'i qilishadi.

Uyimizning parishtasi (farishtasi)
Saranjomu sarishtasi
Otajonim qo'rg'onim
Qo'rg'ondan baland ko'rganim

Suvga kelsam guzarim
Pulsiz kelsam bozorim
Oqshomlar yulduz sanardim
Kunduzlar yo'lga qarardim
Kelmaganin eshitib
Uylarga kirib yig'lardim

O'n yilda o'rni to'lmaydi
Qirq yilda qaytib kelmaydi
Qibladan kelgan shamoldek, panaga ololmadikmi?
Hudodan kelgan ajalga, o'rtağa tusholmadikmi?

Jigarlarini, aka, opalarini yo'qotganida quyidagicha aytib, aytib yig'lashadi:
Izlovchim, so'rovchim jigarlarim
Kelganimda kel degan
Sening joying tur degan
Borum, burum yo'llarga
Buralib kelgan jigarim

O'ng yengida tumori
O'ndirmaydi humori
Chap yengida tumori
Chalg'itadi humori

Samarqandliklar ham huddi Navoiy viloyati singari janoza kuni o'zlarining motam liboslarini kiyib, boshlariga oq ro'mol o'rab vafot etgan insoning yahshi fazilatlarini, qilgan ezgu ishlarini xotirlashadi. Vafot etgan insonning haqqiga duolar qilishadi. Otasi vafot etganida bag'ishlov aytib yig'lashadi. [Madayev O. 2010. 152]

Osmondagi bulutni yog'adi deb o'ylamabman
Esizgina otamni o'ladi deb o'ylamabman
Otajonim qo'rg'onim
Qo'rg'ondan baland ko'rganim

Otajonim jon degan
Jonim bilan teng degan
Hovlimdagi teragim
Hammamizga keragim

Ko'p ko'raman deganda
Kunning ko'zi tutildi
Yer bosaman deganda
Yer bag'riga yiqildi

Tut yog'ochdek mevali
Qayrag'ochdek qiyali
Soyasida yotganim
Mevasidan totganim

Chorxonada ko'ylak ustida
Chayqalib chiqsa bo'lmaydimi
Tengqurlari kelganda
Tenglashib chiqsa bo'lmaydimi
Mehribonim otam
Qiblagohim otam.

Haqiqatdan ham ta'ziya marosimlari turli hududlarda, ayniqsa musulmon mamlakatlarida turlicha bo'lib, ular tegishli urf-odatlar bilan bog'langandir. Shu o'rinda Xorazm vohasining urf-odatlariga to'xtaladigan bo'lsam, chaqaloqdan tortib, barcha marhum va marhumalar vafot etganlarida yoshi katta otaxon va onaxonlarimiz tomonidan mayit oldida o'tirib salovatlar o'qiladi. [Madayev O. 2010. 152]

Boshqa hududlardagi kabi Xorazm xalqi ham ta'ziya kuni erkaklari qora do'ppi, chopon kiyib belbog' o'rashadi. Ayollari ko'k rangli libos kiyishadi va oq rangli ro'mol o'rashadi. Agar erkak kishi vafot etganida anasi(onasi) “Jonim bolam, nurididam dab”, ayoli “Ro'zg'orim, susangan tog'im dab”, farzandlari “Kavam otam, darddoshim otam dab” yig'lashadilar. Ta'ziya marosimlaridagi umumiy jihatlari bilan o'xshash bo'lgan an'analar misolida: 3kunlik, 7 kunlik, Jumalik, 40 kunlik, 52 kunlik va Yil berish marosimlarini boshqa hududlardagi kabi Xorazmda ham kuzatishimiz mumkin. Azador xonadonda 9 oygacha televizor ko'rish va hursandchilik marosimlarini o'tkazish umuman mumkin emas.

Ta'ziya marosimini Farg'ona viloyati jihatidan olsak, bu hududda mayyit qabrga qo'yib kelingach o'lik egalari osh pishirishadi. Bu oshning nomi “Sabr oshi” yoki “Qora osh” deyiladi. Buni o'likning erkak qarindoshlari yeyishadi. Janoza kundan boshlab mayyitning umri o'tgan uyda yoki mayyit joni chiqqan paytda bo'lgan uyga hamon 40 kungacha chiroq yoqish bor. Ba'zilar bugungi kundagi elektr tokidan foydalanishsa, bazilar paxtani yog'ga botirib yoqib yoniga rayhon suv qo'yib qo'yiladi. Ta'zyaning 3-kuni ma'raka marosimidan so'ng aza tugatilmay endi har payshanba uy egalari ertalabdan qozon osishib, ta'ziyaxonlarni kutishadi.

Qishloq ahli, tanishlari, yaqin-uzoq kim eshitgan bo'lsa ayollardan iborat jamoa ertalabdan, to shomgacha kelaverishadi. Bu ta'ziyaxonlik to “40 kunlik” marosim o'tguncha davom etadi. Shu “40 kunlik” marosimiga qo'shib “Qa'da” marosimi ham o'tkaziladi. Bu mahalliy ayollarning eng muhim marosimlari hisoblanib, unda o'lik egalari hali alamlari, azalarining o'rni bitmay, ham ma'naviy, ham moddiy qiyinchilikda bo'lsalar-da, ayollarni to'plab o'lik haqqiga deb bu marosimni o'tkazishadi. Keyin 52 yoki 53 deyilguvchi marosim bor, bu ham ayollar jamoasida davom etadi. Yana marosim boshqaruvchisi bo'lgan “otin oyi” deb nomlanuvchi ayol o'lik chiqqan xonaning poliga igna sanchib chiqadi. Keyin o'rtada biroz tin olishib musulmonlarning eng sevimli, eng shodon o'tadigan ikki bayrami Hayitlarning qaysi biri o'limdan so'ng kelgan bo'lsa, “Hayit oshi” tarqatiladi. Vodiy xalqi urf-odatlariga ko'ra azaxonlik, yana ta'ziyaxonlik uzoq vaqt davom etuvchi marosimlar sirasiga

kiradi. Vodiya bir maqol bor: “To’yniki bir kun, O’likniki bir umr”. Yaqin insonlari olamdan o’tganida vodiylilar ham aytib, aytib yig’lashadi. [Alaviya. M. 2009. 164]

O’limingdan har ko’ngilga tushdi motam,
Favti uchun har burchakdan chiqdi fig’on,
Temir bo’lsa, tosh bo’lsa ham bag’ri yondi,
Bu dahshatli musibatni bildi zamon.

YIG’I MAROSIMI—o’lim va dafn marosimi bilan bog’liq udumlardan biri. O’lim oila boshiga tushgan og’ir musibat. Ko’p yerlarda, xususan, qishloq joylarda Yig’i marosimi odat usiga kirgan bo’lib, ma’lum tartibda o’tadi. Ayollar yakka tarzda yoki bir-birlari bilan ko’rishib yoki davra qurib o’tirib yig’laydilar. O’tirib yig’lashda katta davra quradilar. Odatda, qishloqda, shahar mahallalarida aza qo’shig’ini aytuvchi yig’ichi (go’yanda) ayollar bo’lgan. Ta’ziya marosimida yig’ini go’yanda boshlaydi, o’rtaga tushib va vafot etganning belbog’i, marhum, ayol bo’lsa, ro’molini bo’yniga tashlab, uning yaxshi xislatlarini, tirikligida qilgan ishlarini yaqinlari tilidan ta’sirli qilib aytib yig’laydi. Azador qiz va kelinlar yig’iga qo’shiladilar, boshqa ayollar ham jo’r bo’ladilar.

Yig’i marosimining ikkinchi ko’rinishi sadr (sadr tushish) nomi bilan ma’lum. Bunda marosimga yig’ilgan ayollar tik turib, davra qurib yig’laydilar. Aytuvchi davraning o’rtasida turadi, u bilann davra ichida shu xonadonning ayollaridan biri (onasi, xotini, qizi va b.) ham bo’lgan. Aytuvchi yuqoridagi tartibda, marhum nomini va uning yaxshi xislatlarini aytib yig’i boshlaydi. Ayollar aylanib, tepinib davrani buzmasdan, gir aylanib yig’laydilar. Aytuvchi yig’ining bu ko’rinishi qishloqda yoki mahallada bir yil davomida o’lgan kishilarning nomini navbat bilan aytib bo’lmaguncha davra yig’isi davom etgan. Bu odatlar Xorazm o’lkasida qadimdan mavjud bo’lib, bizgacha yetib kelgan. Ko’p joylarda, masalan O’zbekistonning janubiy viloyatlarida sadr tushish odati juda kam uchraydi. Bu marosimlarda marhumning el-yurtga qilgan yaxshi amallari, ezgu ishlari xotirlanib, unga Allohdan rahmat tilashga chaqiriladi. Yuqoridagi keltirib o’tilgan ta’ziya marosimidagi urf-odat va an’analar negizida inson qadri, uni oxirgi manzilga ham e’zoz, hurmat ila kuzatish yotadi.

REFERENCES

1. Austin, J. L. (1962). How to do things with words. Cambridge MA: Harvard University Press.
2. Condolence Phrases. (2013).

3. Сепир Э. Избранные труды по языкознанию и культурологии.
4. Madayev O. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi – T. Mumtoz so‘z .2010. – B .152.
5. Alaviya. M. Oq olma, qizil olma, 164-bet.
6. Khasanova, G. K. (2021). MAIN TRENDS IN THE DEVELOPMENT OF EDUCATION AND PROFESSIONAL TRAINING IN THE WORLD. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(Special Issue 1), 257-262.
7. Kh, Khasanova G., and Kenjaboev Sh Kh. "The role of education system in human capital development." *Восточно-европейский научный журнал* 2-1 (66) (2021): 48-51.
8. Hashimova, S. A., & Nasirova, S. A. (2021). FEATURES OF FORMING OF ANIMATED NOUNS WITH THE AFFIXES IN MODERN CHINESE LANGUAGE. *Journal of Central Asian Social Studies*, 2(04), 1-10
9. Nasirova, S. A. (2020). CONCEPTS OF 中国 梦想" CHINESE DREAM" AND 类 命运 共同" COMMUNITY OF THE ONE FATE OF HUMANITY"—A LINGUISTIC AREA. *Journal of Central Asian Social Studies*, 1(01), 05-14.
10. Abdullaevna, N. S. (2020). Lexical-semantic and cognitive specifics of political discourse (based on Si Jinping's speeches). *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 10(5), 1086-1092.
11. Nasirova, S. A., Hashimova, S. A., & Rikhsieva, G. S. (2021). THE INFLUENCE OF THE POLITICAL SYSTEM OF CHINA ON THE FORMATION OF SOCIAL AND POLITICAL TERMINOLOGY. *Journal of Central Asian Social Studies*, 2(04), 10-17.